# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4 (2)

2026
APREL



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 2026-yil, aprel.*



**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta’minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug‘lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish
05.08.06 – “G‘ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish” (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta’minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro‘yxatga kiritilgan.


Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 16
**PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o‘g‘li**
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL ........ 25
**Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich**
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI ........ 30
**Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi**
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........ 42
**Xasanov Sardor Xazratkulovich**
IQTISODIY O‘SISH SIFATI VA UNI KO‘RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 50
**Axmedov Xasanjon Muxamadovich**
IQTISODIY O‘SISH SIFATI VA UNI KO‘RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 55
**Axmedov Xasanjon Muxamadovich**
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA’SIRI ........ 60
**Hayitov Jamshid Xolboyevich**
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 65
**Ortiqov Husan Usmonaliyevich**
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 70
**Xamidova Zarifa Urol qizi**
ISTE’MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 74
**Ismailova Shaxnoza Uktamovna**
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG‘ALLIKKA TA’SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO‘RSATKICHLAR TIZIMI ........ 77
**Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich**
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ........ 84
**Dadajonova Madina Ravshan qizi**
ISTE’MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 89
**Ismailova Shaxnoza Uktamovna**
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL ........ 94
**Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz**
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA’SIRI ........ 100
**Hayitov Jamshid Xolboyevich**
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS’ GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN ........ 105
**Maxmudov Rahimjon**
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH ........ 109
**Abduraxmonova Gulmira**
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ........ 114
**Teshabayev Dilmurod Boxodir o‘g‘li**

FARG ‘ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI........................................................................120
**Tuychieva Odina Nabiyevna**
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY..............................................131
**Mirzaev Kulmamat Djanzakovich**
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.............................................................................................................................................................140
**Ortiqov Husan Usmonaliyevich**

KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.................................144
**Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna**

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........................................................................................149
**Xasanov Sardor Xazratkulovich**

IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI ..................................................................................................................................156
**Odinayev Ravzatullo Asatulloyevich**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.............................................................................................................................161
**Karimov Alibek Valievich**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH ...................................................................167
**Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o‘g‘li**

“O‘ZBEKISTON GTL” MAHSULOTLARNINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG‘ILAR OLISH ISTIQBOLLARI.......................................173
**Ro‘ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux**

HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI ....................179
**Marqayev Xurshid Aliqulovich**

ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.................................................................................183
**Zaripova Sayohat Zafarovna**

XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .........................................................188
**Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi**

BUXORO VILOYATI UY XO‘JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIY-IQTISODIY AHVOLI: SO‘ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI ...................................................................................................................................192
**Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura**

DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES ..199
**Mirzaev Kulmamat Djanzakovich**

QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI...................................................................203
**Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI .......................209
**Yusupov Farhod Adamboyevich**

TASVIRLARDAN YO‘L BELGILARINI TANIB OLISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH ...........................................................................................................................................214
**Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich**

OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA ................218
**Kurbanov Baxodir Negmatullayevich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MA’LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI........ 222
**Ashurova Shaxnoza Almasovna**

DAVLAT XARIDLARI BO‘YICHA BYUDJET MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH........ 226
**Meliboyev Askar Eshmuratovich**

ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА........ 231
**Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.**

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ........ 237
**Садиков Жахонгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуканмед кизи**

РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ........ 243
**Мирджураев Сарвар Алишер угли**

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA’SIRI.. 246
**Isoqov Zafarjon Zokirjonovich**

AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI........ 250
**O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich**

ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО........ 259
**Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид**

ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЁННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ........ 265
**Давронов Олимбек, Туляганов Азиз**

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI........ 271
**Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich**

# PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

**Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich**
Andijon davlat universiteti,
“Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi dotsenti
https://orcid.org/0009-0004-2813-1464
mamasoliev2025@mail.ru

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda klaster yondashuvining ahamiyati, qo‘shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga moslashish va logistika tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, marketing strategiyasini rivojlantirish, tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilish va inson kapitali salohiyatini oshirish orqali eksport samaradorligini kuchaytirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Iqtisodiy va kontent-tahlil usullari asosida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari paxta-to‘qimachilik klasterlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *to‘qimachilik, klaster, eksport, eksport salohiyati, menejment, standart.*

**Аннотация.** В данной статье проведен научный анализ приоритетных направлений повышения экспортного потенциала хлопчатобумажных кластеров. Исследование подчеркивает важность кластерного подхода, углубления цепочки создания стоимости, внедрения инновационных технологий, адаптации к международным стандартам и совершенствования логистической системы. Также обосновываются возможности повышения эффективности экспорта за счет разработки маркетинговых стратегий, диверсификации зарубежных рынков и повышения потенциала человеческого капитала. Результаты исследования, проведенного на основе методов экономического и контент-анализа, способствуют повышению конкурентоспособности хлопчатобумажных кластеров и обеспечению устойчивого развития национальной экономики.

**Ключевые слова**: **текстиль, кластер, экспорт, экспортный потенциал, управление, стандарт**.

***Abstract.*** *This article scientifically analyzes the priority areas for increasing the export potential of cotton-textile clusters. The study highlights the importance of the cluster approach, deepening the value chain, introducing innovative technologies, adapting to international standards, and improving the logistics system. It also substantiates the possibilities of increasing export efficiency through the development of marketing strategies, diversifying foreign markets, and increasing human capital potential. The results of the study, conducted on the basis of economic and content analysis methods, serve to increase the competitiveness of cotton-textile clusters and ensure the sustainable development of the national economy.*

***Key words:*** *textile, cluster, export, export potential, management, standard.*

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining kengayishi hamda qo‘shilgan qiymat zanjirlarining transformatsiyasi sharoitida milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan eksport salohiyati bilan belgilanadi. Ayniqsa, agrosanoat majmuasi tarkibidagi yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlardan biri hisoblangan paxta-to‘qimachilik sanoati mamlakatlar iqtisodiy o‘sishining muhim drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlari tizimini shakllantirish va rivojlantirish orqali eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari – bu paxta yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlash, ip-kalava, mato va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimidir. Ushbu klaster yondashuvi vertikal integratsiyani ta’minlashi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi va mahsulot sifati ustidan nazoratni kuchaytirishi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, klaster tizimi eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish imkoniyatini yaratadi.

Shu munosabat bilan, mazkur maqolada paxta-to'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Paxta-to'qimachilik sanoati bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, klaster tizimini rivojlantirish ushbu sohaning eksport salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Klaster modelining afzalligi shundaki, u ishlab chiqarish, innovatsiyalar va marketing faoliyatining yagona ekotizim sifatida shakllanishiga yordam beradi. Eksport salohiyatini oshirish uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish talab etiladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksport qiluvchi mamlakatlar klaster yondashuvi asosida eksport bozorlariga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqib, xalqaro bozorda muvaffaqiyat qozonmoqda.

To'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning klaster shakllari bilan shug'ullangan zamonaviy olimlar orasida D.P.Barsukov [1], D.M.Begov [2], V.I.Vagizova [3], L.L.Butuzova [4] va boshqalarni alohida aytib o'tish mumkin.

Mahalliy olimlar orasida to'qimachilik klasterlari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari M.R.Boltabayev [5], Z.A.Xakimov [6], S.Sh.Yusupov [7], X.Kodirov, I.A.Toshpulatov [8], N.Sadridinova va boshqalar tomonidan bevosita yoki bilvosita o'rganilgan.

Shu bilan birga, bu sohada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ko'plab tadqiqotlari mavjud bo'lishiga qaramay, to'qimachilik klasterlarini takomillashtirish va to'qimachilik mahsulotlari eksportini optimallashtirish masalalari qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kontent-tahlil usuli orqali milliy va xalqaro strategik hujjatlar, sohaviy dasturlar, ilmiy maqolalar hamda eksport siyosatiga oid normativ-huquqiy manbalar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali eksportni rag'batlantiruvchi institutsional omillar, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va global bozor tendensiyalari aniqlandi. Natijada, iqtisodiy va sifat jihatdan tahlilni uyg'unlashtirish orqali ilmiy xulosalarning kompleks va ishonchliligi ta'minlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida klasterlar tizimi 2017-yilda joriy etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachiliktoʻqimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2978-son[1] qarori asosida Buxoro viloyatida "VST cluster" MChJ QK hamda 2017-yil 15-sentyabrdagi "Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3279-son[2] qarori asosida "Bek cluster" MChJ QK paxta-to'qimachilik klasterlari tajriba-sinov tariqasida tashkil etildi. Klaster tizimi yaxshi natija ko'rsatganidan keyin, mamlakatimiz bo'ylab turli klasterlar tashkil etildi. Bugungi kunda respublikada paxtato'qimachilik, g'allachilik va meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyat olib bormoqda. So'nggi yillarda barcha sohalar kabi qishloq xo'jaligida ham ulkan rejalar belgilab olindi. Ushbu sohada rivojlanishni ta'minlash aholining to'g'ridan-to'g'ri oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, sanoat korxonalarini xom-ashyo bilan ta'minlash va ularni bir me'yorda ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun kelgusi besh yilda agrar soha sub'ektlari oldida hosildorlikni kamida 2 barobar ko'tarish, xom ashyoni chuqur qayta ishlash, soha eksportini 7 milliard dollarga yetkazish, aholi bandligi va daromadlarini yanada oshirish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, respublikada 20 ta maxsus iqtisodiy zona (keyingi o'rinlarda-MIZ), 116 ta kichik sanoat zonalari direksiyasi (keyingi o'rinlarda-KSZ), 12 ta texnopark va 440 ta klaster mavjud bo'lib, ular tarkibiga: MIZ-512 ta korxona, 1865 ta MIZ kiradi., texnoparklar-58 va klasterlar-446 ta korxona. Respublikada faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik klasterlar viloyatlar kesimida 1-jadvalda ko'rsatilgan. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash quvvatlarini ko'paytirish, ushbu jarayonga ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish, ularning manfaatlarini davlat hokimiyati boshqaruv organlarida himoya qilish tizimini yo'lga

1 https://lex.uz/docs/-4923854
2 https://lex.uz/uz/docs/-3352683

qo‘yish sohada faoliyat yuritayotgan klasterlarni rivojlantirishga muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Bu Qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari hamda paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkilotchilarining “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasini tashkil etish hamda uyushma tuzilmasida tizimli muammolarni bartaraf etish, marketing innovatsiyalarini faol joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashni ta’minlovchi maslahat organi – Paxta-to‘qimachilik klasterlari kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanishi asosida Kengashning tashkil etilishi klasterlar manfaatlarini davlar miqyosida himoya qilish darajasiga chiqardi (1-rasm).




1-rasm.2022 – 2023-yilda faoliyat yuritayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlar viloyat bo‘yicha soni [9]

Klasterlar uch tomonlama kelishuv doirasida Qishloq xo‘jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlarining qarorlari asosida ish boshlaydi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tugatilib, klaster faoliyatini tashkil etish istagida bo‘lgan arizachilar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi. Qishloq xo‘jaligi vazirligi klasterlar reestrini yuritadi va uni muntazam ravishda o‘z veb-saytida e’lon qiladi. Vazirlikka faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari tizimi asosida klasterlar reytingini shakllantirish vazifasi yuklatildi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular mamlakatning deyarli barcha hududlarida faoliyat yuritmoqda. 2022–2023-yillarda jami 134 ta klaster faoliyat olib borgan bo‘lib, ular umumiy 1 034 223 gektar paxta maydonini qamrab olgan.

Hududlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyati 18 ta klaster va 136 036 gektar paxta maydoni bilan yetakchilik qilmoqda. Bu viloyatda paxta yetishtirish imkoniyatlari yuqori ekanligini va klaster tizimi yaxshi rivojlanganini anglatadi.

Andijon viloyati (15 ta klaster, 78 991 gektar) va Farg‘ona viloyati (13 ta klaster, 82 080 gektar) ham yetakchi hududlardan hisoblanadi. Bu viloyatlarda paxta-to‘qimachilik klasterlari soni nisbatan ko‘p bo‘lib, paxta maydonlari hajmi ham sezilarli darajada yuqori.

Buxoro (11 ta klaster, 99 220 gektar), Samarqand (11 ta klaster, 75 356 gektar), Surxondaryo (11 ta klaster, 72 370 gektar) va Xorazm (12 ta klaster, 82 757 gektar) viloyatlarida ham klaster tizimi yaxshi rivojlangan. Ushbu viloyatlarda paxta maydonlari keng bo‘lib, bu hududlarning yirik ishlab chiqarish bazalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Eng kam klasterlar Navoiy viloyatida (4 ta klaster, 31 655 gektar) va Jizzax viloyatida (6 ta klaster, 77 900 gektar) joylashgan. Bu hududlarda paxta yetishtirish uchun ajratilgan yer maydonlari ham nisbatan kamroq. Toshkent viloyatida ham 6 ta klaster bor bo‘lib, umumiy paxta maydoni 72 161 gektarni tashkil qiladi. [9]

Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash quvvatlarini ko‘paytirish, ushbu jarayonga ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish, ularning manfaatlarini davlat hokimiyati boshqaruv organlarida himoya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish sohada faoliyat yuritayotgan klasterlarni rivojlantirishga muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Bu Qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari hamda paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkilotchilarining “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasini tashkil etish hamda uyushma tuzilmasida tizimli muammolarni bartaraf etish, marketing innovatsiyalarini faol joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashni ta’minlovchi maslahat organi – Paxta-to‘qimachilik klasterlari kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanishi asosida Kengashning tashkil etilishi klasterlar manfaatlarini davlar miqyosida himoya qilish darajasiga chiqardi. Klasterlar uch tomonlama kelishuv doirasida Qishloq xo‘jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlarining qarorlari asosida ish boshlaydi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tugatilib, klaster faoliyatini tashkil etish istagida bo‘lgan arizachilar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi.

Birinchi navbatda, qo‘shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, xom ashyo eksportidan tayyor mahsulotlar eksportiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali eksport tushumlarini bir necha barobar oshirish mumkin. Buning uchun zamonaviy to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini tashkil etish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish hamda yuqori texnologiyali uskunalarni joriy etish talab etiladi. Shuningdek, dizayn, brendlash va mahsulotni individuallashtirish orqali yuqori qiymatli segmentlarga chiqish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – bu innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish jarayonlarini kuchaytirishdir. “Industry 4.0” konsepsiyasi asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, “aqlli” ishlab chiqarish (smart manufacturing), IoT texnologiyalari hamda sun’iy intellektdan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida mahsulot tannarxini pasaytirish va xalqaro bozorlarda raqobat ustunligini ta’minlash imkonini beradi.

Uchinchi yo‘nalish sifatida xalqaro standartlar va sertifikatlash tizimini joriy etishni ko‘rsatish mumkin. Xususan, ISO, OEKO-TEX, GOTS kabi xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash eksport geografiyasini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Bunda ekologik toza ishlab chiqarish, barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish va “yashil iqtisodiyot” talablarini joriy etish alohida ahamiyatga ega.

To‘rtinchi yo‘nalish – logistika va transport infratuzilmasini takomillashtirishdir. Eksport jarayonlarida transport xarajatlari va yetkazib berish muddatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, multimodal logistika markazlarini rivojlantirish, xalqaro transport koridorlaridan samarali foydalanish hamda bojxona jarayonlarini raqamlashtirish orqali eksport operatsiyalarini soddalashtirish zarur.

Beshinchi yo‘nalish – marketing strategiyasini takomillashtirish va tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilishdir. Xalqaro bozorlarni chuqur o‘rganish, talab va iste’molchilar afzalliklarini tahlil qilish asosida maqsadli bozorlarga kirib borish muhimdir. Shuningdek, milliy brendlarni shakllantirish, xalqaro ko‘rgazmalar va yarmarkalarda faol ishtirok etish hamda elektron tijorat platformalaridan foydalanish eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Oltinchi yo‘nalish – inson kapitali va kadrlar salohiyatini rivojlantirishdir. Zamonaviy to‘qimachilik sanoati yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi. Shuning uchun ta’lim tizimi va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, dual ta’lim tizimini joriy etish hamda xalqaro tajribani o‘zlashtirish muhim hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Qo‘shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga moslashish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, marketing strategiyasini takomillashtirish hamda inson kapitalini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirilganda, mazkur sohaning eksport salohiyati sezilarli darajada oshadi. Bu esa o‘z navbatida milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, tashqi savdo balansi yaxshilanishi va mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi oshishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Porter, M. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
2. Begov D.M. Effektivnost formirovaniya regionalnogo xlopkovo-tekstilnogo klastera (na materialax Sogdiyskoy oblasti). Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. – Dushanbe, 2020.

3. Vagizova V.I. Klasterizatsiya kak innovatsionnaya forma diversifikatsii xozyaystvennыx sistem i faktor povыsheniya konkurentosposobnosti ekonomiki Tatarstana. // Problemы sovremennoy ekonomiki, 2009.
4. Butuzova L.L. Formirovaniye proizvodstvenno-innovatsionnыx klasterov promыshlennыx predpriyatiy. Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk.
5. Boltabayev M.R. O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2005. – 242 b.;
6. Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2017. – 141 b.;
7. Yusupov S.Sh. Kuchli raqobat sharoitida O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2018. – 144 b.;
8. Toshpulatov I.A. To‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2019. –137 b.
9. https://cyberleninka.ru/article/n/paxta-to-qimachilik-klasterlarining-iqtisodiy-samaradorligini-oshirish-yo-llari.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal